



BOBUR LIRIKASIDAGI O'ZIGA XOS YO'NALISHLAR

Saburova Umida Kuanishbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7492168>

ARTICLE INFO

Received: 19th December 2022

Accepted: 26th December 2022

Online: 29th December 2022

KEY WORDS

Bobur, ruboiy, lirika, g'azal, hasbi-hol xarakter, Vatan, Boburiylar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning boy adabiy merosi, she'riy asarlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ifodalab beriladi. Bobur lirikasining tengsiz namunalari orqali mumtoz adabiyotning serqirra tomonlari haqida fikr yuritiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tavallud topgan. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori bo'lsa, onasi Qutlug'nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Otasi bevaqt vafot etgach, Farg'ona hokimligi 12 yoshdagi Boburning zimmasiga tushdi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etdi. Ammo taqdir taqozosi bilan o'z ona yurtini tashlab chiqishga majbur bo'ladi. 1526-yili Hindistonni zabt etib Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Bobur ikki she'riy to'plam- devon tuzgan. Bizgacha shulardan faqat bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma'lum. Hozirda bizga uning 400dan ortiq she'ri ma'lum bo'lsa, shundan ikki yuzdan ortig'i ruboiydir. Bobur ruboiylari har jihatdan to'kis, mukammal she'riy asarlar hisoblanadi. Ularda Bobur hayotining manzaralari aks etadi. Shoir o'z umrining achchiq-chuchuk kunlaridan so'z ochadi.

Ko'ngli tilag'an murodig'a yetsa kishi
 Yo barcha murodlarni tark etsa kishi
 Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda
 Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Ushbu ruboiyning yozilish holatini ko'z oldimizga keltiraylik. U 19-20 yoshlarda g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari. Lekin davlat ishlari, siyosiy ziddiyatlar uni ruhan tushkun holatga tushuradi.

Boburning hayoti o'zi tug'ilib o'sgan yurtlardan kechganini yaxshi bilamiz. Shu bois Bobur ruboiylarida ona Vatanga intilish, g'urbat, hijron mavzulari keng yoritilgan. Quyidagi ruboiy ham adibning yurt sog'inchiga to'la qalbining aks sadosi, o'ziga xos oynasidir;

Ko'pdin berikim yor-u diyorum yo'qdir
 Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qdur
 Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur

Birinchi misradayoq yor va diyor sog'inchi juda oshkor va samimiy ifodalanmoqda.Unda muddatning davomiyligi e'tiborni tortadi.

Natijaning yomonligi uchun o'zining aybdorligini tan olish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.Boburda mana shunday mardonavorlik har doim ochiq namoyon bo'ladi.Bu yerda ham shu xislatning yana bir qirradi ko'rinib turibdi.Ammo taqdir buyrug'iga bo'ysunmaslikning ham imkoni yo'q.Oxirgi misra mana shu e'tirofning go'zal ifodasi sifatida yaratilgan Bobur ruboiylari bu janrni yangi mavzu bilan boyitdi.Ularga hasbi hol ohanglarning yurtsevarlik,vatanparvarlik g'oyalarining ustuvor tarzda singdirilishi mana shu yangilikning bir qismini tashkil etadi.Yana bir yangilik ularning tabiiy,samimiy ruhi bilan belgilanadi.Bobur she'riyati hayotning turli qirralari haqida bahs yuritadi.Asosan hasbi hol xarakterli bo'lib,shoir o'z ko'rgan-kechirgan tuyg'ularini ifodalashga ko'proq e'tibor beradi.

Boburning yana bir yirik xizmati she'riy asarlar tilini hayotga yaqinlashrinishda,uning sodda va ravon,tushunarli,samimiy bo'lishiga intilishida ko'rinadi.Ba'zan bu g'azallarda og'zaki nutqqa juda yaqin bo'lgan ohanglar sezilib turadi.Bobur o'zbek tilidagi so'zlardan juda o'rinli hamda unumli foydalanadi Ularning kuchi va qudratini,ichki imkoniyatlarini,tarovatini chuqur his qiladi.

Bobur nazarida olamning munavvarligi odamning istaklari,shu istakning amalga oshishi bilan bog'liq.Shoir o'zbek tilining tarovat va nazokatini teran anglagan,nozik tushungan. Darhaqiqat,Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz,mavzu jihatdan Vatan va unga bo'lgan sog'inch asosiy o'ringa chiqadi.Boburning ulkan san'atkorligi shundaki,shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashgan darajaga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi.Bobur ijodida xususan,she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash,g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat,yor-u diyor sog'inchi,taqdir zarbalari va turmush uqubatlari zamona nohaqliklari badiiy tahlil etiladi.

Tole yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi

Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi

O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim

Yo Rab,netayin,ne yuz qarolig' bo'ldi.

Haqiqatan ham Vatan sog'inchi insonni ruhan qiyinchiliklarga duchor qiladi.Vatan inson hayotida qanday yuksak ahamiyatga ega tushuncha ekanligini yuqoridagi ruboiy misolida ham anglash qiyin emas.

Xulosa o'rnida aytish joizki,Bobur serqirra ijodkor.Bobur ijodida Vatan motivi g'oyat yuksak ahamiyat kasb etadi.Zero,u o'zga yurtida oshyon qurgan bo'lsada,o'z yurtini unutmagan chin o'zbek farzandidir.Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka,adolat,insonparvarlikka,yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi.Shu o'rinda adabiyotshunos olim V.Rahmonovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb topdim:"Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi,uning mumtoz she'riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi.Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparlik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi."

Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib,lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviyati madaniyati

tarixida munosib o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Azimjonova "Zahiriddin Muhammad Bobur" Toshkent-1995
- 2.X.Nazarova "Boburnoma" Toshkent-1980
- 3.H.Qudratullayev " Boburning adabiy-estetik qarashlari" Toshkent- 1983